

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI TASHKIL ETISHNING KREATIV MODEL

Qobiljonova Jasmina Jasur qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Tasviriy san'at mutaxassiligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tasviriy san'at darslarini tashkil etishning kreativ modeli yoritilgan. Tadqiqot jarayonida tasviriy san'at ta'limida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning darslarni maqsadli va samarali tashkil etishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida ishlovchi grafik dasturlar va taqdimot vositalaridan foydalanish orqali darslarning ko'rgazmalilik darajasini oshirish, o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada taklif etilgan kreativ model tasviriy san'at darslarida innovatsion muhitni shakllantirish, o'qitish jarayonini individuallashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tasviriy san'at ta'limi, kreativ model, raqamli texnologiyalar, grafik dasturlar, darslarni tashkil etish, raqamli kompetensiya.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri o'quv jarayonini zamon talablariga mos ravishda yangilash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hamda talabalarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, tasviriy san'at ta'limi an'anaviy texnika va usullar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar, grafik dasturlar va sun'iy intellekt vositalari bilan boyitilishini talab etmoqda. Chunki zamonaviy san'at muhiti raqamli vizual madaniyat, interaktivlik va kreativ tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon o'quvchilardan nafaqat badiiy mahorat, balki texnologik savodxonlik va mustaqil ijodiy yondashuvni ham talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[Mirziyoyev, 2016, 14-b].

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi tasviriy san'at darslarini tashkil etishda mutlaqo yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Xususan, sun'iy intellekt asosida ishlovchi grafik platformalar, vizual tahlil vositalari va generativ tasvir yaratish texnologiyalari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, dars jarayonini individuallashtirish va o'qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar yordamida talabalar o'z g'oyalarini tezkor vizual shaklga keltirishi, rang, kompozitsiya va shakl bo'yicha turli variantlarni solishtirishi hamda o'z ijodiy ishlarini tahlil qilish orqali reflektiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, tasviriy san'at darslarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etish, dars jarayonida kreativ modelni shakllantirishni taqozo etadi. Bunday modelda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning ijodiy faoliyatini yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va motivatsiya beruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Talabalar esa passiv tinglovchidan faol ijodkor, tadqiqotchi va muammolarni kreativ hal etuvchi shaxsga aylanadi. Aynan shu jarayon tasviriy san'at ta'limining pedagogik mazmunini boyitib, o'qitish jarayonini yanada maqsadli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at darslarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etish jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyati ham sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi. Zamonaviy sun'iy intellekt vositalari o'qituvchiga darsni rejalashtirish, taqdimot materiallarini tayyorlash va

ko'rgazmali qurollarni yaratishda katta yengilliklar yaratadi. Jumladan, Gamma kabi sun'iy intellekt asosida ishlovchi taqdimot dasturlari yordamida o'qituvchi dars mavzusiga mos vizual slaydlarni qisqa vaqt ichida tayyorlashi, ranglar uyg'unligi, kompozitsiya va grafik elementlarni avtomatik tarzda taklif etilgan dizaynlar asosida shakllantirishi mumkin. Bu esa o'qituvchining texnik ishlariga ketadigan vaqtni sezilarli darajada qisqartirib, asosiy e'tiborni pedagogik jarayon va ijodiy yondashuvga qaratish imkonini beradi. "Pedagog tomonidan ta'lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi"[Z.F.SHaropova, 2019, 139-b].

Sun'iy intellekt asosidagi taqdimot va dizayn vositalaridan foydalanish o'qituvchining metodik imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, dars jarayonida tasviriy san'at tarixiga oid mavzularni yoritishda o'qituvchi sun'iy intellekt yordamida vizual ketma-ketlik, infografika va interaktiv slaydlar yaratib, o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq idrok etishiga erishadi. Bunday ko'rgazmali materiallar darsning mazmunini boyitib, murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchi sun'iy intellekt vositalari orqali turli darajadagi o'quvchilar uchun moslashtirilgan taqdimot variantlarini tayyorlab, darsni differensial va individual yondashuv asosida tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tasviriy san'at darslarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni yoshlar tomonidan o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlari, o'z bilimlarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan"[D.M.Mamatkulov, Z.Sh.Alimardonov, G'.Z.Ikmatullaev, 2024, 9-10-b]. Grafik dasturlar va sun'iy intellekt vositalari bilan ishlash jarayonida o'qituvchi o'z raqamli kompetensiyalarini rivojlantirib, zamonaviy ta'lim muhitida faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu esa o'qituvchining kasbiy moslashuvchanligini oshirib, uni innovatsion pedagogik jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ayniqsa, dars jarayonida yaratilgan sun'iy intellekt asosidagi taqdimotlar va vizual materiallar o'qituvchining metodik portfelini boyitib, kelgusida boshqa fanlararo integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda ham qo'l keladi. "Kreativ yondashuv ta'lim jarayonini yanada qiziqarli, moslashuvchan va samarali qilishga, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochishga va innovatsion pedagogik faoliyatni rag'batlantiradi"[O'ktamov, Toshpo'lotova, 2024, 60-b]. Shuningdek, sun'iy intellekt vositalari o'qituvchiga dars jarayonini tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi. Masalan, o'quvchilarning taqdimotlarga bo'lgan munosabati, ularning vizual materiallarni qabul qilish darajasi va faolligi sun'iy intellekt asosidagi tahliliy vositalar orqali kuzatilib, dars samaradorligini oshirish bo'yicha xulosalar chiqariladi. Natijada o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini reflektiv tahlil qilish, dars metodikasini takomillashtirish va o'qitish jarayonini yanada maqsadli tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Gamma, Canva, PowerPoint AI, Copilot va shunga o'xshash sun'iy intellekt asosidagi taqdimot va grafik dasturlardan foydalanish tasviriy san'at darslarini tashkil etishda o'qituvchi uchun samarali metodik vosita bo'lib, darsning ko'rgazmaliligi, mazmuni va interaktivligini oshirish bilan birga, pedagogning kasbiy faoliyatini yengillashtiradi va ta'lim jarayonining umumiy sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida tasviriy san'at fanini o'qitish jarayoni faqat an'anaviy badiiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarda raqamli savodxonlik, kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvni rivojlantirishni ham taqozo etadi. Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tasviriy san'at darslarini tashkil etishning kreativ modeli aynan shu talablarga javob berib, ta'lim jarayonini maqsadli, samarali va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish imkonini beradi. Mazkur model darslarning mazmunini boyitish, ko'rgazmalilik darajasini oshirish va o'qitish jarayonini individuallashtirish orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tasviriy san'at

darslarida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi. O'qituvchi sun'iy intellekt asosidagi grafik va taqdimot dasturlari orqali darsni puxta rejalashtirishi, vizual materiallarni tezkor va sifatli tayyorlashi hamda metodik yondashuvlarni boyitishi mumkin. Bu esa o'qituvchining vaqt va mehnat resurslarini tejab, pedagogik jarayonning mazmuniy va ijodiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'quvchilar sun'iy intellekt vositalari yordamida mustaqil ijodiy izlanish olib borish, o'z g'oyalarni vizual shaklda ifodalash va ularni tahlil qilish orqali ijodiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

Mazkur kreativ modelning ta'lim jarayoniga joriy etilishi darslarni tashkil etishda refleksiya va baholash mexanizmlarini takomillashtirishga ham imkon yaratadi. Sun'iy intellekt vositalari yordamida o'quvchilarning ijodiy ishlari tahlil qilinib, ularning rivojlanish dinamikasi aniqlanadi, bu esa baholash jarayonining obyektivligini oshiradi va o'quvchilarni o'z faoliyatini tahlil qilishga yo'naltiradi. Natijada dars jarayoni faqat bilim berishga emas, balki shaxsiy rivojlanish, ijodiy tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tasviriy san'at darslarini tashkil etishning kreativ modeli zamonaviy pedagogik talablarga mos, innovatsion va amaliy jihatdan samarali yondashuv hisoblanadi. Ushbu modelni oliy ta'lim muassasalarida joriy etish tasviriy san'at ta'limining sifat va samaradorligini oshirish, o'qituvchi va o'quvchilarning raqamli hamda ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda kelgusida san'at ta'limini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlari uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.M.Mamatkulov, Z.Sh.Alimardonov, G'.Z.Ikmatullaev—"Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar" nomli uslubiy qo'llanma. – O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti – T: Jamoat xavfsizligi universiteti nashriyoti, 2024-yil 9-10-betlar.
2. O'ktamov Madadjon, Toshpo'lotova Jasmina –"Raqamli ta'lim sharoitida kreativ ta'limning o'rni va roli", "Kreativ ta'lim: innovatsiya va samaradorlik" mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi, Toshkent-2024, 60-bet.
3. Sh.M.Mirziyoyev– "Biz birgalikda erkin va obod demokratik O'zbekiston davlatini quramiz" Toshkent. O'zbekiston–2016. 14-bet.
4. Z.F.SHaropova- "Ta'lim texnologiyalari", "Navro'z" nashriyoti, Toshkent-2019, 139-bet.